

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

2024/3-SON  
ILLOVA TO'PLAM

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>G.T.Xusanova</b>	
Boshlang'ich sinflarda zid ma'noli so'zlardan o'rini foydalanish ko'nikmasini shakllantirish	335
<b>M.A.Kuchkarova</b>	
Развитие креативности учащихся с помощью игровых методов обучения	338
<b>Z.M.Sidikova, X.T.Ibroximova</b>	
Allomalar merosi vositasida o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik yo'nalishlari	342
<b>K.Sh.Nishonova</b>	
Boshlang'ich ta'limga integrativ ta'limga uning turlari	347
<b>A.R.Dilbarjonov</b>	
Zamonaviy ta'limga jarayonida interfaol usullar va zamonaviy axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga tatbiq etish usullari	350
<b>I.V.Xoldarova, M.D.Akbarova</b>	
Kichik yoshli o'quvchilarni savodga o'rgatishda axborot texnologiyalaridan foydalanishning samarasini	354
<b>M.M.Abdumannopov</b>	
Ta'limga raqamlashtirish sharoitida talabalarining mustaqil ta'limga olish kompetensiyasini rivojlantirish masalalari	358
<b>T.Y.Bakirov, O.S.Axmadjonova</b>	
Maktab matematikasida kasrlar mavzusini induktiv metodika asosida o'qitish xususiyatlari	362
<b>N.A.Qodirova</b>	
Texnika oly o'quv yurtlari talabalarida yozish ko'nikmalarini wiki- texnologiya asosida rivojlantirish metodikasi" (Ingliz tilini o'qitish misolida)	366
<b>Z.N.Ortiqova</b>	
Oilada bolalarni milliy qadriyatlар va an'analar asosida tarbiyalashning pedagogik omillari	370
<b>M.N.Nasritdinova, T.A.Egamberdiyeva</b>	
Ta'limga o'zlashtirish samaradorligini oshirishda artpedagogikaning o'mni	377
<b>I.Kirgizov</b>	
"Ey sabo" – komil insonga aksilogik yondashuv	381
<b>A.T.Karimov</b>	
Milliy musiqaning shakllanishi va rivojlanishida xalq qo'shiqlarini qayta ishlashning o'ziga xos tamoyillari	386
<b>A.M.Nurmuxammadjonov</b>	
Jamiyatning yangi taraqqiyot bosqichida yoshlar musiqiy tafakkurini yuksaltirish zaruriyati	390
<b>M.M.Najmetdinova</b>	
Ommaviy-madaniy tadbirlar tushunchasining mazmun-mohiyati va konseptual asoslari	396
<b>M.Kurbanova</b>	
Dutor cholg'usi ijrochiligidagi musiqiy savodxonlikni shakllantirish metodlari	400
<b>X.M.Shermatova</b>	
Maktabgacha ta'limga tizimida zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati	403
<b>T.N.Shokirov</b>	
Markaziy Osiyo madaniyati va san'ati jahon madaniyatining rivojlanish chorrahasi	407
<b>B.M.Qurbanova</b>	
Ijodkor ongida badiiy tafakkur holatini o'zgartirishga sabab bo'luvchi omillar	410
<b>L.Sh.Shukurova</b>	
Zardo'zlik san'ati buyumlarining badiiy uslubiy jihatlari va uning ilmiy tahlili	415
<b>A.A.A'zamjonov</b>	
Yangi O'zbekistonda ma'rifatli jamiyat qurishda tasviriy va amaliy san'atning o'mni	419
<b>A.A.Abdisattorov</b>	
Musiqaga o'qituvchisining ijodiy kompetentligini rivojlantirish omillari	422
<b>I.D.Rustamov</b>	
O'zbek zarbli cholg'ularining ijtimoiy hayotdagi o'mni (Doira cholg'usi misolida)	428
<b>A.A.Ergashev</b>	
Vokal-xor ta'limga finale-2003 dasturining qo'llanishi	432
<b>A.A.Mamurov</b>	
Rishton kulolchilik maktabining rivojlanish bosqichlari	438



UO'K: 303.03

**TEXNIKA OLIY O'QUV YURTLARI TALABALARIDA YOZISH KO'NIKMALARINI WIKI-TEKNOLOGIYA ASOSIDA RIVOJLANTIRISH METODIKASI" (INGLIZ TILINI O'QITISH MISOLIDA)**

**METHODOLOGY OF DEVELOPMENT OF WRITING SKILLS IN TECHNICAL HIGHER EDUCATION STUDENTS ON THE BASE OF WIKI-TECHNOLOGY" (EXAMPLE OF TEACHING ENGLISH LANGUAGE)**

**МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ ПИСЬМЕННОСТИ У СТУДЕНТОВ ТЕХНИЧЕСКИХ ВУЗОВ НА ОСНОВЕ ВИКИ-ТЕХНОЛОГИИ" (ПРИМЕР ОБУЧЕНИЯ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ)**

**Qodirova Nargiza Abdusalom qizi**

Farg'ona Davlat universiteti Amaliy ingliz tili kafedrasini o'qituvchisi, Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'lifotlar tarixi yo'nalishi doktoranti

**Annotatsiya**

Ushbu maqola texnika oliv o'quv yurtlari talabalar uchun chet tili hisoblangan ingliz tilining, asosiy til ko'nikmalaridan biri hisoblangan - yozma ko'nikmasini o'qitishni wiki-teknologiyalar yordamida rivojlantirish metodikalarini tavsya etadi. Ushbu usul texnika oliv o'quv yurti talabalariga ham, ingliz tili fani pedagoglariga ham birdek foydali ekanligi maqolada ilmiy faktlar bilan asoslanadi. Muallif maqolani yozish jarayonida asosan o'qituvchi-pedagog shaxsi tomonidan yondashib, wiki-teknologiyalarni dars jarayonida qanday va nima maqsadda qo'llash bo'yicha ko'satmalar ham keltirib o'tadi. Maqola matni yanada tushunari bo'lishi uchun, wiki-teknologiya aslida nima ekanligi va uning ta'llim sohasidagi o'rni qanchalik ahamiyatli ekanligiga urg'u beriladi. Shuningdek, ingliz tilida yozma ko'nikmalar va ularning qiyinlik darajasi, talabalarga yozma ko'nikmalarni o'qitishning ijobiy jihatlari va yozma ko'nikmalarning turlari, ushbu ularning o'z ichiga nimalarni olishi haqida ham qisqacha ma'lumot berilgan. Maqolada pedagog o'qitish jarayonida nimalarga ko'proq urg'u berishi, vaqtning ahamiyati, yozma ko'nikmani o'qitish jarayonidagi birlamchi va ikkilamchi omillarga alohida e'tibor beriladi va izohlanadi. Yozma nutqni rivojlantiruvchi wiki-teknologiyalardan bir nechtasining nomi maqolada keltirilib, ularning vazifasi alohida tushuntirilgan.

**Аннотация**

В данной статье рекомендуются методы развития английского языка как иностранного, одного из основных языковых навыков - навыков письма с использованием вики-технологий для студентов технических вузов. Основано на научных фактах, что этот метод одинаково полезен как студентам технического вуза, так и преподавателям английского языка. В процессе написания статьи автор подходит преимущественно с позиции учителя-педагога, и дает инструкции, как и с какой целью использовать вики-технологии в ходе урока. Для того, чтобы текст статьи был более понятен, акцент сделан на том, что на самом деле представляет собой вики-технология и насколько важна ее роль в сфере образования. В нем также представлен краткий обзор навыков письма на английском языке и уровня их сложности, преимущества обучения учащихся навыкам письма, а также типов навыков письма и того, что эти типы включают. В статье уделяется особое внимание и поясняется, на что педагогу следует больше обращать внимание в процессе обучения, на важность времени, на основные и второстепенные факторы в процессе обучения навыкам письма. В статье названы некоторые вики-технологии, развивающие письменную речь, и отдельно объяснено их назначение.

**Abstract**

This article recommends the methods of developing English as a foreign language, one of the main language skills - writing skills using wiki technologies for students of technical universities. It is based on scientific facts that this method is equally useful for students of technical higher education institution and pedagogues of English language. In the process of writing the article, the author approaches mainly from the perspective of a teacher-pedagogue, and gives instructions on how and for what purpose to use wiki-technologies in the course of the lesson. In order to make the text of the article more understandable, emphasis is placed on what wiki technology actually is and how important its role is in the field of education. It also provides a brief overview of English writing skills and their level of difficulty, the benefits of teaching writing skills to students, and the types of writing skills and what these types include. In the article, special attention is given and explained to what the pedagogue should emphasize more in the process of teaching, the importance of time, the primary and secondary factors in the process of teaching writing skills. Some of the wiki-technologies that develop written speech are named in the article and their function is explained separately.

## PEDAGOGIKA

**Kalit so'zlar:** wiki-tehnologiya, yozma ko'nikma, texnika oliv o'quv yurti talabalar, yozish turli, esse, telefon ilovalari, asosiy g'oyaning ustuvorligi.

**Ключевые слова:** вики-технологии, навыки письма, студенты технических вузов, виды письма, эссе, телефонные приложения, приоритет основной мысли.

**Key words:** wiki-technology, writing skills, technical university students, types of writing, essay, phone applications, the priority of main idea.

## KIRISH

Yaqin kunlarda ta'lif sohasida texnologiya va unga yondosh bo'lgan so'zlarning qo'llanishi va texnologiyalarning ta'lif jarayoniga kirib kelishi ta'limga sezilarli ta'sir ko'rsatmasdan qolmadi. Zamonaviy texnologiyalar sababli, ta'lif jarayoni va sferasi kengaydi, ilmiy tadqiqotlar jarayonida jaxon tajribalaridan foydalanish, chet mamlakatlar, xususan Sharq va G'arb mamlakatlari) pedagoglarining o'zaro fikr almashinuv jarayoni, xalqaro konferensiyalarning tashkilanishi va ijtimoiy tarmoqlarda eng so'nggi pedagogik nazariyalar va ularning amaliy natijalari tasviri tushirilgan rasm va videolarning joylanishi, eng kerakli metodik maqolalarning ta'limi internet saytlaridan o'rinn olishi misli ko'rilmagan va kutilmagan hodisa bo'ldi. O'zaro fikr almashinishlar natijasida sifatli va ta'lif standardlariga javob berishi ko'zda tutilgan pedagog-o'qituvchilarning o'qitish texnikalari keng ommaga taqdim etildi, o'quvchi va talabalarning bilim olish jarayonini osonlashtirish uchun metodik qo'llanmalar yosh kadrlarga namuna sifatida berildi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Demak, ta'lilda texnologiya o'zi nima, xususan wiki-tehnologiya atamasining aynan ma'nosi nima? Wiki-tehnologiya atamasidagi "wiki" so'zi "tez" degan ma'noni anglatadi, "texnologiya" so'zi esa "qurilma" demakdir, demak, "wiki-tehnologiya" bu "tez ishga tushadigan qurilma" ma'nosini anglatar ekan. Wiki-tehnologiya bugungi kunda millionlab web-sahifalar, xususan Wikipedia, onlayn ensiklopedialar, MediaWiki, Wiktionary, Wikibooks, Wikiquote, Wikisource, Wikispecies, Wikinews, Wikiversity kabi katta loyihalarni o'z ichiga oladi.

Wiki-tehnologiya Internet texnologiyalari yaratgan eng oxirgi va eng foydali texnologiya bo'lib, u har bir onlayn tashrif buyuruvchi shaxsga o'z ma'lumotlarini taqdim etibgina qolmasdan, ularni ma'lumotlar bazasiga yangilik kiritishga va o'z hissalarini qo'shishga undaydi. Eng kamida berilgan ma'lumotlarga izoh yozish imkoniyati mavjud bo'ladi, bu esa ushbu ma'lumotlar o'quvchi uchun qanchalik qadr-qimmatga ega bo'lganligini bilish uchun samarali vosita.

Shuningdek, wiki-sahifalardagi ma'lumotlarni to'ldirish va yanada boyitish uchun har bur foydalanuvchiga ma'lumotlarni tahrirlash, jumladan ma'lumot yaratish, ma'lumot qo'shish, qo'shilgan ma'lumotni olib tashlash kabi huquqlar beriladi. Bu esa ma'lumotlarning yanada mazmunli bo'lishini ta'minlaydi.

Ayniqsa, wiki-tehnologiyalarning ingliz tilini o'qitishdagi o'rni va ahamiyati beqiyos: "Pedagog qachon sifatli ta'lif bera oladi?", qachonki til o'rgatish uchun yetarli sharoitlar mavjud bo'lganida va talabalar bilan doimiy ishslash muhitini yarata olganida, albatta. Misol uchun, til o'rgatish, xususan yozma ko'nikma shakllantirish uchun bir kunda o'tilgan 80 daqiqa dars kamdek tuyuladi, chunki til boshqalar bilan muloqot qilinib, taqqoslab, keng ko'lamda o'rganilgandagina yuksaladi. Wiki-tehnologiyalar esa agar o'qituvchi talabalarni to'g'ri yo'naltira olsa va wiki-tehnologiyalarning keng imkoniyatini talabalarga ochib bera olsa, talaba va o'qituvchi kutilgan natijaga erishishi shubhasizdir. Ayniqsa, ingliz tilidan mutlaqo yiroq bo'lgan, oliyoh va guruhdoshlari orasida "ingliz tilini o'rganish uchun yetaricha atmosfera" topa olmagan (bundan tashqari, ushbu yo'nalish talabalari uchun chet tili darslari yetaricha soatlarda tashkilanmaydi, bunga ingliz tilining noyo'nalish fan ekanligi dalil sifatida ko'rsatiladi) texnika oliyoghlari talabalari uchun bu kabi qurilmalar bir talay imkoniyatlarni yaratadi.

## NATIJA VA MUHOKAMA

Ayniqsa, talabalar, ko'pincha, ingliz tilining yozma ko'nikmasini qiyin deb bilishadi, buning sababi va asosiy muammosi esa ushbu ko'nikmaning talabalarga taqdim etilish jarayonidir. Ko'pgina pedagoglar hali hanuz writing skill (yozma ko'nikma) ni o'rgatish uchun eski uslublardan va metodikalardan foydaladi, ya'ni taqdimot asosida namuna yoki shablon berish, kalit so'zlar va bog'lovchilarni o'rgatish, grammatik qoidalarni unutmaslik, shuningdek, talaba mavzuni tushunib ulgurmay tanaffus bo'lishi talabalarning bilim sifatini keskin tushib ketishiga sabab bo'ladi, albatta. Biroq, zamonaviy dunyo, texnologiyalar asri ushbu jarayonni yanada sifatli va tez sodir bo'lishini

ta'minlay oladi. Ya'ni, yozma ko'nikmaning ma'lum bir mavzusini o'rgatishdan avval, pedagog talabalarga bir qancha yozma ko'nikmalarni rivojlantiruvchi ilovalarni taqdim etishi, talabalarning diqqatini hozircha mayda detallarga emas, asosiy kontentni rivojlantirishga qaratmog'i lozim. Bu yerda asosiy content deyilganida ma'lum bir yozma ko'nikmaga doir mashg'ulotning asosiy ma'zmun-mohiyati ko'zda tutiladi. Fikrimizni kengroq yoritishdan avval, yozma ko'nikmalar qanday turlarni o'z ichiga olishini quyidagi jadval asosida bayon aytib qilishni lozim topdik:

Yozma ko'nikmalar ingliz tilida 4 ta katta turni o'z ichiga oladi.

Ular o'z ichiga quyidagilarni oladi.



Demak, yuqorida har bir yozma ko'nikma turining qanday janrlarni o'z ichiga olishini aytib o'tdik.

Ularni yozish jarayonidagi asosiy content esa so'z tanlovi, yozish uslubi (rasmiy, norasmiy), g'oyalar, ularning asoslanganligi, namunalar va faktlarning yetarlilik darajasi, originallik, so'zlarning gradatsiyasi (darajasi), gaplarning bir-biriga bog'langanligi deb aytishimiz mumkin.

Ikkilamchi omillar esa punktuatsiya, shablon, bog'lovchilarning qo'llanilishi, abzasga rioya qilinganligi, kichik Grammatik detallar, sinonimiya kabilalar misol bo'la oladi. Albatta, yuqoridagi omillar ham o'z ichida yana bir qancha turlarga bo'linish xususiyatiga ega.



Pedagog-o'qituvchining asosiy vazifasi esa aynan asosiy kontentni qanday yaratishni talabalarga o'rgatish hisoblanadi. Wiki-tehnologiyalar yordamida esa ikkilamchi omillar bemalol hal qilinishi mumkin. Misol uchun smartfonlarga

- Grammarly ...
- ProWritingAid ...
- Hemingway ...
- Wordtune ...
- Writer.com ...
- Ginger Software ...
- iA Writer

• Linguix ... kabi ilovalarni o'matish orqali talabalar o'zlaridagi kamchiliklar, grammatik xatolarni bemalol bilib olishlari mumkin bo'ladi. Bu orqali ular o'z ishlardagi mayda grammatik xatolarni bartaraf etishi, vaqt tejashi, mukammal punktuatsiyaga ega bo'lishi mumkin.

Shuningdek, yozma ko'nikmalardagi eng qiyin va ko'p vaqt talab etadigan nuqta bu ularning tekshirilish jarayonidir. Ma'lumki, ingliz tili o'qituvchisi oraliq va yakuniy nazorat paytlarida yoki yozma ish uy vazifasi sifatida berilganidagina talabalarning yozma ishlarni tekshiradilar va ularning eng ko'p vaqt grammatik xatolarni tushuntirish va izohlashga ketib qoladi. Mayda grammatik xatolar mavjudligi sababli ham, asosiy kontentning sifati birmuncha kamayadi. Wiki-tehnologiya ayni shu kichik xatolarni to'g'rilib, asosiy g'oyani birinchi omil darajasiga olib chiqadi.

### XULOSA

Xulosa qilib aytganda, wiki-tehnologiyalar tillarni, xususan ingliz tilini o'qitishda katta ahamiyatga ega bo'lib, pedagog-o'qituvchilar va talabalarga qulay imkoniyatlarni va haqiqiy ingliz tilini o'qitish va o'rganish muhitini yaratadi desak mubolag'a bo'lmaydi. Hozirgi zamonaviy dunyoda ilm-fan olamining ham ildam qadamlar bilan olg'a borishida, texnologik qurilmalar metodikaning ijobjiy tomonga o'zgarishi uchun qulay zamin hozirlamoqda. Bu esa ingliz tilini o'qitish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilishi shubhasizdir.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Барышников Н.В. Теоретические и практические аспекты преподавания иностранных языков и культур в различных условиях// Материалы всероссийской научно-методической конференции «Теория и практика преподавания иностранных языков и культур в различных условиях. Лемптеровские чтения – IV». – Пятигорск: Изд-во ПГЛУ, 2002. – С. 3-5.
2. TEKNIKA YO'NALISHI OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARIGA CHET TILINI O'RGATISHDA INTERFAOL TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH METODIKASI, Qodirova Gavhar Alisher Qizi, Jizzax politexnika instituti mustaqil tadqiqotchisi
3. TEKNIKA OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA INGLIZ TILINI O'QITISH: MUAMMO VA YECHIMLAR Shaxakimova Mavjuda Tashpolatovna Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
4. <https://www.grammarly.com/blog/types-of-writing/>
5. <https://www.readingrockets.org/classroom/classroom-strategies/descriptive-writing>